

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
B.Q.Qurbanova	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili	54
N.N.Ahmadjonov	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
Sh.A.Usmonov	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni	121
H.A.G'anieva	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



УО'К: 372.370.153.

**МАКТАБГАЧА YOSH DAVRI BOLALARINING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINING
EMPIRIK TAHLILI**

**ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

EMPIRICAL ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF PRESCHOOL CHILDREN

Djalalova Mohinur Abdusattor qizi 

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yosh davridagi 6-7 yoshli bolalarining psixologik salomatligi borasida olimlarning ilmiy izlanishlari, inson ruhiy salomatligi masalasiga e'tibor qaratgan o'zbek olimlarining tadqiqot sohalari, maktabgacha yosh davridagi bolalarining ruhiy salomatligiga aggressiv xulqning ta'siri, qishloq va shahar hududida istiqomat qiluvchi bolalarining aggressiv xulq shakllari amaliy tahlili bayon etilgan bo'lib shuningdek maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalar ya'nii maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining aggressivlik darajasi bugungi global dunyoda oshib borayotgani unga birinchi o'rinda texnika va texnologiyaning rivojlanishi sabab bo'layotgani, uning negizida esa bolaning ruhiy salomatligiga putur yetmoqda, ularda aggressivlikni oshib ketishi tabiiyki, yuqorida ta'kidlaganimizdek ota-onalarga, tarbiyachilarga bog'liqlik tomonlari ko'p, bu davorda bizga ma'lumki, bola taqlid qilish qobiliyatini juda yaxshi egallagan bo'lib ota-onasining emotsiyonal holatlari jahliga qarab ham, undagi tajavvuzkorlik ortib ketishi mumkin ekanligi yoritib o'tilgan.

Аннотация

В статье представлены научные исследования ученых по вопросам психологического здоровья детей 6-7 лет дошкольного возраста, направления исследований узбекских ученых, фокусирующихся на проблеме психического здоровья человека, влияние агрессивного поведения на психическое здоровье человека. психическое здоровье детей дошкольного возраста, детей, проживающих в сельской и городской местности. В статье описан практический анализ моделей агрессивного поведения, а также указано, что уровень агрессивности детей дошкольного возраста, то есть воспитанников организаций дошкольного образования, в современном глобальном мире увеличивается психическое здоровье, для них естественно быть более агрессивными, как мы уже упоминали выше, существует множество аспектов зависимости от родителей и воспитателей, что даже в зависимости от его гнева, его агрессии. может увеличиться.

Abstract

In the article, the scientific research of scientists on the psychological health of 6-7-year-old children of preschool age, the research areas of Uzbek scientists focusing on the issue of human mental health, the impact of aggressive behavior on the mental health of preschool children, children living in rural and urban areas. The article describes the practical analysis of aggressive behavior patterns, and the article also states that the level of aggressiveness of children of preschool age, that is, the students of preschool education organizations, is increasing in today's global world. Mental health is damaged, it is natural for them to be more aggressive, as we mentioned above, there are many aspects of dependence on parents and educators. It is highlighted that even depending on his anger, his aggression may increase.

Kalit so'zlar: bola, ruhiyat, salomatlik, ong, muhit, sifat, aggressiya, xulq, tarbiya, ota-ona, ijtimoiy, psixologik, shaxs, moslashuv.

Ключевые слова: ребенок, психика, здоровье, сознание, окружающая среда, качество, агрессивность, поведение, воспитание, родители, социальное, психологическое, личность, адаптация.

Key words: child, psyche, health, consciousness, environment, quality, aggression, behavior, education, parents, social, psychological, personality, adaptation.

KIRISH

Jahonda bolalarning psixik rivojlanishi, ularning ruhiy salomatligi doimo muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan, zotan ular ertangi kelajagimiz vorislari sifatida e'tirof etiladi. Bolaning o'z sog'lig'iga ijobiy munosabatini bolalikdan boshlanishi va shakllantirilishi shart bo'lgan ahamiyatli qadriyat sifatida qaralishi uning umumiyligini va ruhiy salomatligini barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Shaxsni kamol topishi, yetuk inson bo'lishi, o'ziga adekvat baho bera olishining dastlabki poydevori oila bo'lsa, undan keyingi maskan bu matabgacha ta'lim tashkiloti hisoblanadi. Dunyo bo'yicha ruhiy salomatlik muammosi 2017-yilga kelib, 792 million ruhiy kasallikka chalingan shaxslar ro'yxtarga olingan - bu sayyoramiz aholisining 10,7 foizini tashkil qiladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilga kelib bu ko'satkich 970 million kishiga o'sdi - dunyodagi har sakkizinchisi ruhiy kasallikka chalingan. Ming afsuski ular orasida bolalar ham bor. Psixologik salomatlik darajasi va sifati shaxsning ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual psixik moslashuvi ko'satkichlari bilan tavsiflanishi qayd etilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'ssatadiki, psixologik salomatlik ko'p jihatdan shaxsiy ko'rinishlarning o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda salomatlik psixologiyasi muammolari ustida tadqiqot olib borayotgan psixolog olimlardan G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.M.Umarov, F.A.Akramova, S.Jalilova, Z.Ibdullayev, N.G.Kamilova, M.X.Karamyan, Z.A.Rasulova, Sh.M.Sodiqova, N.A.Sog'inov va boshqalar inson salomatligini ta'limda, ishlab chiqarishda, oilada shaxslararo munosabatlarga bog'liqligi va salomatlikning mustahkamligiga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar, sog'lom turmush tarzining ijtimoiy-psixologik jihatlari, psixosomatik kasalliklar va ularning oqibatlarini o'rganishga qaratilgan ishlar bilan bir qatorda salomatlikda psixologik xizmatning rolini o'rganishga e'tibor qaratganlar.[8.15b]

V.Karimova ilmiy izlanishlarida xotin-qizlarlar muammolarining ijtimoiy-psixologik masalalari, oila va salomatlik, salomatlikning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash, ularning metodologik asoslarini tahlil qilish, shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsatish hamda salomatlikni asrash har bir shaxsning individual rivojlanish darajasini belgilovchi omillardan biri ekanligini tadqiq qilish zarurligi ta'kidlanadi. [8.15b]

Z.Ibdullayev ilmiy izlanishlarida asab tizimi va uning buzilishiga oid turli kasalliklarning kelib chiqishi, tibbiy-psixologik holatlar va ularni davolashning psixoterapevtik usullari, shaxsning individual psixologik xususiyatlarining o'ziga xos ruhiy-tibbiy jihatlari, ruhiyatning psixolingvistik jihatlari, stress, depressiya borasida va nevrozning kasallik emas, balki noto'g'ri tashkil etilgan turmush tarzi natijasi ekanligi, shuningdek, tibbiyotda psixologik bilimlarni qo'llashning tarixiy-madaniy jihatlari psixologik tadqiq etilgan.[8.15b]

M.X.Karamyan ilmiy tadqiqotlarida shaxsni salomatlikka qadriyat sifatida munosabati kognitiv, emosional va xulq-atvor komponentlarining ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, salomatlikka munosabatda jinsiy tafovutlar, yosh davrlari boyicha tafovutlar aniqlanib, shaxsni salomatlikka qadriyat sifatida munosabati ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik omillarga bog'liq ekanligi tadqiq etilgan.

M.T.Isakovaning "Inson ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari" nomli doktorlik dissertatsiyasi inson ruhiyatining ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, uning sabab va oqibatlari ilmiy - amaliy jihatdan keng tahlil qilingan. Shuningdek, insonning umumiy jismoniy holati bilan uning simpatik-parasimpatik, vegetativ asab tizimi, stressga bardoshliligi hamda ijtimoiy moslashuvchanligining bir-biriga bog'liqligi, umumiy jismoniy holatning pasayib borishi tashqi umumiy rivojlanishni ham pasayishiga sabab bo'lishligi tadqiq etilgan.

Jamiyatdagagi a'zolarining ruhiy salomatligi ularni komil inson sifatida o'zlarini yuksaltirishlari, insoniylikga xos bo'lgan xususiyatlarni nomoyon etishlari, shaxs deb atalmish yaratganning eng noyob mo'jizasi bo'lishdek sharafli nomga erishishlari uchun ruhiyatidagi meyoriylik zarur ekanligini, bu borada xorijiy va o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari nechog'li ulkan ahamiyat kasb etishini anglash qiyin emas. Yuqoridaq psixologik adabiyotlarda yoritilanidek shaxsning shaxs bo'lib sayqallanishida o'zidan yaxshi nom qoldirishida va o'zgalarga nafi tegadigan hazrati inson bo'lishida uning psixologik salomatligi birinchi o'rinda ekanligini anglashimiz shart.

NATIJA VA MUHOKAMA

Matabgacha yosh davridagi bolalarda ruhiy salomatlik muammosi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Sababi, yosh avlodning ham ma'nani ham ruhan sog'lom bo'lishi jamiyatning yuksalishida muhim o'rinn tutadi. Bolalar biz kattalar orqali, dunyonи tushunadi, bu bolaning murakkab kattalar dunyosiga qanchalik oson kirib borishi bizga bog'liq bo'ladi. Psixologik salomatlik bolaning hayoti davomida har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shartdir. "Ruhiy salomatlik" atamasining o'zi Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 1979-yilda "Bolalarning ruhiy salomatligi va psixosotsial rivojlanishi" ekspertlar qo'mitasining hisobotida kiritilgan. Unda aytishicha, ruhiy salomatlik buzilishi nafaqat somatik kasalliklar yoki jismoniy

PEDAGOGIKA

rivojlanish nuqsonlari, balki psixikaga ta'sir ko'rsatadigan va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil salbiy omillar va stresslar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bolalarning ruhiy salomatligi - bu barqaror hissiy holat, o'zini va uning atrofidagi dunyoni yetarli darajada baholash qobiliyatini, odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini, rivojlangan ma'naviy qadriyatlar tizimini, rivojlanish va takomillashtirishga intilishni o'z ichiga olgan keng tushunchadir. Bolaning o'sib-ulg'aygan muhiti bolaning ruhiy salomatligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, uning nafaqat hissiy, balki jismoniy holati ham muhimdir. Shunday qilib, ruhiy salomatlikning tana tarkibiy qismlari (sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faoliyat va dam olish muvozanati) aqliy komponentlar (stressning yo'qligi, odamlar bilan yaqin munosabatlar, qo'rquv va tashvishlarni yengish, sog'lom o'zini o'zi qadrlash, chuqur axloqiy fazilatlar) bilan birgalikda, bolaning ruhiy salomatligiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda deyarli barcha bolalar qandaydir psixologik yordamga muhtoj ekanligiga shubha yo'q, chunki ular bir qator salbiy omillar ta'sirida bo'lischadi. Zamonaviy hayotda biz bolalarning omon qolishi, to'liq rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy resurslarning yetishmasligi sharoitida yashayapmiz. Bu bolalar aqliy, jismoniy va ijtimoiy salomatligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bolalarning psixologik salomatligi mezonlari quyidagilardan iborat: shaxsning hissiy, irodali va kognitiv sohalarining yoshga mos darajasi, faoliyatizingizni rejalashtirish qobiliyati, o'z-o'zini anglashning ijobjiy qiyofasi, ruhiy holatlarni o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, o'z-o'zini tanqid qilish, mustaqillik, mulohaza yuritish, empatiya qobiliyati, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish. Bolalarning psixologik salomatligining natijasi - sog'lom shaxs. Bolalarning psixologik salomatligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buni ko'rib chiqish uchun yana bir bor I.V.Dubrovinaning qarashlariga murojaat qilishimiz mumkin. Dubrovina psixologik salomatlik va shaxsiyat rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlar haqida psixologik salomatlikning asosi ontogeneznning barcha bosqichlarida to'liq aqliy rivojlanishdir deb takidlab o'tgan.

Ilmiy tadqiqot ishimizda qishloq va shahar bolalarining agressivlik holatlarini I.Podlasiy metodikasi bo'yicha har bir savollari bilan javoblarni qiyoslab chiqdik va quyidagi 1-jadvalda bu belgilarning qaysi biri hududlar kesimida baland ekanligini shahar va qishloq hududida istiqomat qiluvchi bolalarda flora va faunaga, do'stlikga, qonunlarga bo'ysunishga, do'stlarni laqab bilan chaqirish kabi xususiyatlarni aniqladik.

I.Podlasiy metodikasining Mann-Uitniy va Vilkonson mezonlari bo'yicha statistik tahlili n=199

1-jadval

Savollar	Hudud	Sinaluvchi lar soni	O'rtacha arifmetik qiymat	Mann Uitniy	Vilkon son	Z	Asimetrik og'ish
Siz bog'chada qoidalarni buzasizmi?	Shahar	101	84,90	3507,5 00	6282,5 00	-559	,576
	Qishloq	98	88,57				
Siz boshqalar ustidan kulasizmi?	Shahar	101	109,09	2028,5 00	6978,5 00	-6,509	,000***
	Qishloq	98	70,49				
Siz mushtlashishni yoqtirasizmi?	Shahar	101	105,76	2275,0 00	7225,0 00	-5,255	,000***
	Qishloq	98	72,98				
Siz_o'rtoqlaringizni suhbatda kansitasizmi?	Shahar	101	124,50	2425,5 00	7375,5 00	-7,196	,000***
	Qishloq	98	74,50				
Siz hayvonlarni urasizmi?	Shahar	101	87,50	3712,5 00	8662,5 00	-3,432	,001***
	Qishloq	98	111,50				
Siz daraxt sindirasizmi?	Shahar	101	113,50	3514,5 00	8464,5 00	-3,972	,000***
	Qishloq	98	85,50				
Bolalarni laqabi bilan chaqirasizmi?	Shahar	101	111,00	3762,0 00	8712,0 00	-3,278	,001***
	Qishloq	98	88,00				

Izoh---000***, 00**p<1

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, "Siz bog'chadagi qoidalarni buzasizmi?" savoliga shahar bolalariga qaraganda qishloq bolalari (84,90 <88,57) bo'yicha ko'proq qonunlarni buzishlari aniqlandi. Lekin mezon asosida ulardagi bu ko'rsatkichda juda katta ahamiyatga moyil farqlar sezilmadi. "Siz boshqalar ustidan kulasizmi?" ta'kidiga ko'ra shaharlik bolalarning javoblaridan ko'rishimiz mumkinki ular qishloqda istiqomat qiluvchi tengdoshlariga nisbatan boshqalar ustidan ko'proq mazax qilishlarini ochiqladik. Buni o'rtacha arifmetik qiymatidan bilishimiz mumkin (109,09 > 70,49) va bu natijalar orasida juda katta farqlar mavjud ekanligini aniqladik. (,000***) ya'ni bu ko'rsatkich bo'yicha shahar bolalari ancha ustun ekanligini takidlash mumkin. "Siz mushtlashishni yoqtirasizmi?" savoliga olingan javobning o'rtacha arifmetik qiymati (105,76 > 72,98) shu ko'rsatkichda bo'lib shahar va qishloq hududida yashovchi 6-7 yoshli bolalarning shaharlik qismida ko'proq mushtlashishga moyillik bor va ular o'rtasida ahamiyatga moyillik farqlar bor ekanligini takidlashimiz mumkin. Yuqoridagi jadvalda bilishimiz mumkinki, shaharlik 6-7 yoshli bolalar qishloqlik bolalarga qaraganda I.Podlasiy metodikasi mezonlari bo'yicha yuqori natijalarni qayd etishdi, bunda ular qishloqlik tengdoshlariga qaraganda tajavuzkorroq ekanligi anglesh mumkin, ya'ni qishloq bolalari ikkita mezon bo'yicha ustun bo'ldilar bog'chadagi qoidalarni buzish va hayvonlarni urish bo'yicha ustunlikga ega holos qolgan mezonlarning hammasida shahar bolalari katta farqlar bilan ustunlikga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Biz ilmiy tadqiqot ishimizning amaliy qismida bolalarning agressivlik holatlari hududlar kesimida ularning tahlilini, turli xil mezonlar bilan oshib berdik, bolalarning agressivlik holatlari bu ularning ruhiy muammolari ekanligini ruhiy salomatlikni saqlash bolalikdan boshlanishi zaruriy mehanizm bo'lishini takidlab o'tishimiz mumkin. Oilaviy muhit bolalarga nisbatan oila azolarining munosabati buning negizida esa bolaning xulqidagi o'zgarishlar agressivlik darajasining oshib ketishi yoki tajavuzkorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin ekanligini olib borilgan metodikalar yordamida ko'rib chiqdik. Bolalikdan boshlangan ruhiy salomatlik tushunchasi bolani meyoriy holatda voyaga yetishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаева Ш, А.С.Сайитов, Г.И.Халикова. Историда педагогики.-Т, 2018.-323с.
2. Андреева Г.М. Сотсиалнауа психология. Учебник.- М.: Аспект Пресс.
3. Andreeva A.D., Voxmyanina T.V., Voronova A.P., Chutkina N.I. "Bolalar va o'smirlarning ruhiy salomatligi ". -M., 2020. 571 b.
4. A.G.Maslou Motivatsiyasi va shaxsiyati. Tarjima. ingliz tilidan Tatlybayeva AM Sobiq: Evroosiyo, 2019 yil.
5. Bayakina O.A. Insonning aqliy va psixologik salomatligi tushunchalari nisbati // Rossiya Fanlar Akademiyasi Samara Ilmiy Markazi. - 2019. - 11-son. - №4 (5). - bilan. 195 - 199.
6. Bexterev V. M. inson taraqqiyoti va ta'lim muammolari. Moskva - Voronej, 2017, p.97-131.
7. Boyko O.V. Ruh salomatligi: darslik. - M.: Akademiya, 2024. - 268 b
8. M.T.Isakova Inson ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari (DSc) avtoreferati F-2022 y 15 b